



## VRACH-PEDAGOG KADRLARNI TAYYORLASHDA PSIXOLOGIK MULOQOT JARAYONINING MUHIM JIHATLARI

Muratova Shoista Norbovayevna  
SamDTU Pedagogika, psixologiya,  
kafedrası dotsenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14650166>

### ARTICLE INFO

Received: 9<sup>th</sup> January 2025  
Accepted: 10<sup>th</sup> January 2025  
Published: 14<sup>th</sup> January 2025

#### KEYWORDS

*Pedagogik muloqot, notiqlik va so'z sana'ti, o'qituvchining nutqi va sintaktik jihati, shaxslar faoliyati motivasiyasi, ma'naviy tarixiy, madaniy milliy va umuminsoniy qadriyatlar, odbob-axloq va tarbiya, pedagogning o'quvchilar bilan muomalasi.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada pedagog va talaba o'rtasida pedagogik muloqotning muhim ahamiyati, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" g'oyasi asosida pedagogning aossiy vazifalari, pedagogikning notiqlik sana'ti, muomala madaniyati, o'qituvchi talabalarni umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ko'zi bilan qarashga va komil insonni tarbiyalash kabilar yoritib berilgan.*

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, jamiyatda o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanish yo'lining tanlab olinishi, shuningdek, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» g'oyasi va talablari asosida jahon talablariga muvofiq keluvchi, uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirish uchun qulay shart-sharoit yaratdi. Ta'lim sohasida olib borilayotgan hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan davlat siyosati ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etildi.

Ma'lumki sharqda azaldan notiqlik san'ati ma'lum va mashhur bo'lib kelgan. Har bir aytiladigan so'zing ma'noli ma'naviy boylikka ega bo'lishi va bejirim, ma'noli gapira bilish hozirgi vaqtdgacha diqqatga sazovor bo'lib kelmoqda.

Shuning uchun, nutqni chuqur bilish va bo'lajak avlodlarni bu san'atga yetaklash pedagogning eng asosiy vazifalaridan biri.

Muloqot inson faoliyatining ruhiy hamda ma'naviy asosi natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy ehtiyojlar bilan birgalikda namoyon bo'ladi, «Shaxslar faoliyati motivasiyasining asosi sifatida yuzaga chiqayotgan ehtiyoj, manfaat, manfaatdorlik kabi ijtimoiy iqtisodiy omillar ma'lum ma'noda ularni maqsadli o'y fikrlari, istaklari yuzaga chiqishiga ham sabab bo'ladi. Shaxslararo munosabatlarni, muloqot madaniyatini qay darajada shakllanishiga ham sezilarli ta'sir o'tkazadi. Binobarin, muloqot odamlar orasida amalga oshiriladigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rin egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojlarni jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojni qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati mislsiz». Muloqot odamlarning birgalikdagi faoliyatlari, ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-biri bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jaraenidir.

Muloqot faqat insonlarga xos bo'lgan jarayondir. Kishilarda faoliyat jarayonida bir - birlariga nimanidir aytish istagi tug'iladi. Muloqot - odamlar o'rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog'lanishlar rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko'rsatuvchilar o'rtasida axborot ayirboshlashni o'z ichiga

oladi. Bunda munosabatning kommunikativ jihati hisobga olinadi. Kishilar munosabatga kirishishda avvalo tilga murojaat qiladilar. Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati - nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham ayirboshlashdan iborat. Masalan, munosabatga kirishar ekanmiz, u bizni qoniqtirsa imo-ishora bilan muloqotda bo'lamiz. Munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning birbirlarini idrok eta olishlaridir. Masalan, biz bir kishi bilan muloqotga kirishishdan avval uni hurmat qilib yoki mensimasdan munosabatda bo'lamiz. Demak, muloqot jarayonida kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o'zaro birgalikda harakat qilish) va pertseptiv (o'zaro birgalikda) idrok etish amalga oshiriladi.

Muloqot qonuniyatlarini bilish hamda uni o'rnatish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish har bir kishi uchun muhimdir. Har bir kishining o'z "Meni" atrofdagilar bilan bo'ladigan muloqot jarayonida shakllanadi, Shaxsning hayot yo'llari avval oilada, bog'cha, maktab, institut, ishxona, keksalar orasida, ya'ni guruh va jamoalarda rivojlanadi. Bizning yuksak ma'naviy ehtiyojlarimizdan biri - bu muloqotga bo'lgan ehtiyojdir. Muloqotga bo'lgan ehtiyojimiz qondirilmasa, ongimiz ham rivojlanmaydi. Shuning uchun biz doimo muloqotga bo'lgan ehtiyojlarimizni qondirishimiz lozim. Kimlar bilandir bo'lgan muloqotdan qoniqish hosil qilamiz, lekin ayrim hollarda esa biz qoniqmaslikni his qilamiz.

Pedagogik muloqot - bu muloqot turlaridan biri bo'lib, pedagogik faoliyatda muhim o'rin tutadi. Biz guruh va jamoaga kirar ekanmiz, doim unda turli rollarni bajarishga to'g'ri keladi. Rasmiy guruhda boshliq rolini o'ynasak, kasalxonada bemor, do'konda haridor, oilada rafiq yoki rafiqqa, ota - ona oldida esa farzandlik rolini bajaramiz. O'smirlar ongini va e'tiqodini shakllantirishida milliy g'oyani to'g'ri targ'ib etishda muloqot katta ahamiyatga ega.

Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida taniqli psixolog B.F.Parigin shunday yozadi:

a) individlarning o'zaro ta'sir jarayoni;

b) individlar o'rtasidagi axborot almashinuv jarayoni;

v) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabat jarayoni;

g) bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni;

d) bir-biriga hamkorlik bildirish imkoniyatlari;

ye) shaxslarning bir-birini tushunish jarayoni. Muloqot o'z xususiyatlariga ko'ra turli shakl va ko'rinishlarga ega. Muloqot inson amaliy faoliyatining moddiy ma'naviy shakllarini hamda uning ehtiyojlarini o'zida aks ettiradi. («Xalq ta'limi» jurnali, 2003 yil, 3son, 48bet).

Muomala jarayonida suhbatdoshining kayfiyatini ko'tarish, unga optimistik ruh bag'ishlash, uning o'z kuchiga ishonchini hosil qilish ham o'qituvchining eng muhim sifatlaridan biridir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tom ma'nodagi muomala madaniyatiga ega bo'lgan o'qituvchi shuhratparastlik, manmanlik, befarqlik, hasadgo'ylik, g'iybatchilik kabi illatlarga toqat qila olmaydi va unga qarshi kurashadi. O'qituvchining muomala madaniyatining tarkibiy qismi nutq madaniyati bilan bog'liq. Chunki nutq va unda ifodalangan so'z kishiga ta'sir etuvchi qudratli psixologik kuchga ega. Uni faqat o'zining mazmuni bilan emas, balki so'zlovchining aytilayotgan fikrini ifoda qilish uslubi bilan ham ta'sir darajasi va qudratini yanada orttirish mumkin.

O'qituvchining nutqi imkoni boricha sintaktik jihatdan sodda, jozibador, ta'sirchan tuzilishi lozim. Har qanday bilim va tarbiya, asosan o'qituvchining dars xamda darsdan tashqari kundalik nutqi orqali berib boriladi. Nutqda, u qanday shaklda bo'lmasin, bizning qadriyatlarimiz qattik hurmat qilinishi lozim.

O'qituvchi faoliyatida sharqona umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish. Milliy dastur, ta'lim to'g'risidagi Qonundan kelib chiqadigan vazifalarni maktab talabalari, o'quv yurtlarining pedagog xodimlari, professor o'qituvchilari amalga oshiradilar. Shu bois pedagog xodimlar o'zlarining kasbkor sha'ni va qadr-qimmatlarini himoya qilishlari: odob-axloq qoidalariga rioya etishlari, talaba, talaba va talaba, o'qituvchi talaba shaxsining qadr-qimmatini asrashlari; talabalarni mehnatga, qonunlarga, ota-onalarga, ma'naviy tarixiy, madaniy milliy va

umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, atrof-muhitga ehtiyokorlik bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashlari, ibratli faoliyatlari va shaxsiy namunalari bilan umuminsoniy axloq qoidalariga, haqiqat, adolat, vatanparvarlik, yaxshilik va boshqa xayrli xislatlarga nisbatan e'tiborni qaror toptirishlari lozim.

Komil insonni tarbiyalash g'oyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, uning ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. Barkamol inson haqidagi yuksak, umuminsoniy g'oyalar Abu Nasr Forobiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarimizning asarlarida, ayniqsa teran ifoda etilgan. Hazrat Navoiyning

**«Kamol et kasbim, olam uyidin senga farz o'lmagay g'amnoq chiqmoq.**

**Jahondin notamom o'tmak biaynix, erur ham momdin nopok chiqmoq»**, degan fikrlari har bir inson komillikni o'ziga shior qilib olishi zarurligini anglatadi.

Vrach va pedagog mutaxassilariga kelsak, shu sohaga o'zini bag'ishlagan shaxslar til va nutq madaniyatiga to'la ega bo'lishlari lozim!

**Abu ali Ibn-Sino: "Tabibning quroli: birinchisi-so'z, ikkichisi – giyoh, uchinchi – pichoq".**

**Odob ichdan bulmog'i kerak,**

**Xosil bermas xech tashqi bezak.** Abdurahmon Jomiy.

Buyuk mutafaakir Abdurahmon Jomiyning oltinga arzugulik bu so'zlarida aynan ta'lim va tarbiya beruvchi shaxsning avvalom bor o'zi tarbilangan bo'lishi kerak.. Chunki pedagog va shaxs o'rtasidagi pedagogik faoliyat keljakda o'zining ijobiy mevasini berishi zarur.

Ulug' vatandoshimiz Abu Nasr Farobiy tug'ri so'zlash, tug'ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go'zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantikning nakadar ahamiyati zurligi xaqida shunday deydi: Kelajak avlodni tarbiyalashda o'qituvchi mas'ul hisoblanadi. Uni kamol topishida o'qituvchining dunyoqarashi ongi, madaniyati, nutqi belgilovchi vositalar sanaladi. O'qituvchilik kasbi yuksak ma'naviyatni, insonparvarlikni, xohlaydi. Tajribali pedagog suhbat chog'ida inson kunglini asrashga unga muloyimlik bilan yo'l topishga harakat qiladi. O'qituvchining aditoriya bilan muloqoti tizimiga, goho muloqotga xalaqit beradigan ruhiy to'siqlar paydo bo'ladi. U darsning borishiga ham, o'qituvchilar va talabalar kayfiyatiga ham salbiy ta'sir etadi. Har bir o'qituvchi bilishi kerak bo'lgan pedagogik muloqotni tashkil qilishning asosiy ruhiy pedagogik talablari shulardan iborat. Shubhasiz, uni yodlab olish va ko'rko'rona tadbir qilish yetarlimas. U o'qituvchiga o'quvtarbiya jarayoniga eng asosiy omil - inson omiliga samarali ta'sir etishga yordam beradi. Nihoyat pedagogning o'quvchilar bilan muomalasi shunga olib keladiki, u o'quvchilarning hatti-harakatlaridagi chuqur ma'no va haqiqiy vaziyatlarni turli sabablarda payqab oladi, buning uchun namuna u o'zi tez-tez qayd qilgan dalillardan va o'quvchilarning xulq-atvor usullaridan foydalanadi. O'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasi tarbiyani boshqarish sifatida qaralib, birlashtiruvchi o'rnini to'ldiruvchi vazifani ham bajaradi. Muomala o'zaro munosabatlar doirasida sodir bo'ladi.

Xulosa qilib aytadganda, pedagogning zimmasiga yuklatilgan buyuk vazifa – komil insonni tarbiyalashdir. Bu vazifani bajarishda undan juda ehtiyotkornalik bilan yondashishi, sabr-qanoat, guzal axloq va o'ta madaniyatli bo'lishlik talab qilinadi. Chunki pedagog zamon talablariga mos keluvchi raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash orqali davlatimiz kelajagiga o'z hissalarini qo'shishlari muqarardir.

#### Adabiyotlar ro'yxati:

1. N. Azizhadjayeva – Pedagogik texnologiya. T. 2001 yil.
2. U.Tolipov – Pedagogik texnologiya. T. 2001 yil.
3. N.Q Saidaxmedov –Yangi Pedagogik texnologiya. T. 2008 yil.
- 4.B. Ferberman – Ilg'or pedagogik texnologiya T. Fan 2000 yil.
5. O' Asqarova «Pedagogika». T. 2008 yil.
6. Karimova V. was born in M. "The foundations of social psychology". - T., 1994.
7. This is general psychology. A . V . Edited by Petrovsky. T. 1992 .

8. Muratova Sh.N. and Social aspects of preparing adolescent boys for family life. The Ministry of Education and Science of the Republic of Uzbekistan (MES) has issued a statement. 91-95, [19.00.00 No 10] is amended as follows:
9. Muratova Sh.N. and Scientific and theoretical basis of the problem of preparing children for family life and its state of education. It is important to note that this is not the first time that the President of the Republic of Uzbekistan has visited Uzbekistan. 82 to 86 , [19.00.00 No 10 ]
10. Muratova Sh.N. and Otan's place in foster care. Education, science and innovation, scientific newsletter. 2022, No. 5, - B. 82 to 86 , [19.00.00 No 10 ]
11. Socio-psychological aspects of preparing boys for family life. SamDU scientific news release. ISSN: 2091-54-46 , 2020 , No. 6 (124), which is the B. 100-105. (No 19.00.00 of the year 2010)
12. Muratova Sh.N. and The socio-psychological capabilities of premarital parents in preparing young people for family life. This is the scientific journal of psychology of the BUH DU. ISSN 2181-5291, 2021, No. 3 - B. The following is the list of the names of the persons who were killed: 84-90. (No 19.00.00 of the year 2010)
13. Muratova Sh.N. and Analysis of theoretical approaches to the pedagogical and psychological education of boys in the family. NamDU scientific news release. ISN: 2181, 2019, 6th edition, published by B. 409-415 , [19.00.00 No 10 ] is amended as follows:
14. Muratova Sh.N. and Problems of youth for family life. It is also used in the treatment of mental illness, and in the treatment of mental disorders. 282-291.
15. Muratova Sh.N. and The place of the psychological environment in the family to increase student activity in the educational process. This is the first time that the World Health Organization (WHO) has published a report on the impact of the pandemic on global health15. Muratova Sh.N. and "I've been thinking about it for a long time, and I've been thinking about it for a long time. This is a list of the most commonly used commands . It is available online at, ISSN: 2660-5562, Volume 2, No 3, March, 2021, <https://scholarzest.com/p>. 27-30.
16. Muratova Sh.N. and Socio-Psychological Issues of Preparing Young Men for Family Life is a book by Dr. International Conference on Applied Sciences, Conference is organized in the London, United Kingdom on 24-25th. This is a list of all the notable deaths in the United States.